



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TA'LIM BERISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Aliyeva F.Z.*

*Termez iqtisodiyot va servis universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi  
va metodikasi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi magistranti*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, tarbiya, interfaol metod, dars, axborot texnologiyalari, sinf, o'quvchi, o'qituvchilar.

**Ключевые слова:** образовательная система, интерактивные методы, урок, информационные технологии, класс, ученик, учителя.

**Key words:** educational system, interactive methods, lesson, information technologies, class, student, teachers.

Kirish. Insonlarning dunyo qarashini rivojlantirishda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham maktab ta'lim tizimini rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimini sifatini yaxshilash, o'quvchilarning bilim salohiyatini o'stirishda jahon mamlakatlari tajribalarida foydalanish yaxshi samara beradi. Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan, interfaol metodlardan foydalanish bugungi kun talabidir. Mamlakatimizda o'quv jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "Maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishni ta'minlash ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan". Boshlang'ich sinflar bu ta'limning poydevoridir. Poydevor mustahkam bo'lsa bino ham mustahkam bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tarbiya, tabiiy fanlar darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ta ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu fanlar zahirida savodxonlik, matematik bilimlar va axloqiy, ta'limiy tarbiya turadi.



O'quvchilar ilk saboqlarini boshlang'ich sinfdan olishadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish, darslardagi faol ishtirokini ta'minlashga a'lihibda e'tibor qaratish lozim. Chunki o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan o'quvchilarni darslarga qiziqitirsa, ular yuqori sinflarda ham darslarda faol ishtirok etishadi.

O'qituvchilar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirishda turli xil interfaol metodlardan foydalanishmoqda. Ta'lim jarayonidagi zamonaviy o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi sir emasdir. Bugungi kunda o'qituvchilar dars jarayonlarini tashkil etishda bugunga zamonamizga mos bo'lgan, o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli metodlardan foydalanishlari zarurdir. Bunda o'quvchilarga interfaol metodlardan foydalanib dars o'tish yaxshi natija beradi.

“Interfaol tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” - o'zaro, ikki taraflama, “act” - harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi. “Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Binobarin, innovatsion ta'lim texnologiyalari majmuaviy integrativ tizimlar bo'lib, ta'lim maqsadi bilan belgilangan kasbiy ko'nikma, malaka shaxs xislatlarini o'rganuvchilar tomonidan egallanishi, bilimlar o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini o'z ichiga qamrab oladi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni darslarda qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy bo'g'ingga aylangan. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi”. Interfaol metodlarning asosiy mezonlari – darslarda norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni darslarda tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh,



sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Ta'lim berish jarayonida interfaol usullarni tanlash ta'lim maqsadi, o'quvchilarning soni va ularning imkoniyatlari, hamda o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, o'qitish tizimining davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati kabilar e'tiborga olinadi.

Darslarda bu metodlarni qo'llash o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini erkin bayon etishlariga yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarni erkin tinglovchilardan erkin ishtirokchilarga aylantirishimiz bugungi kunning muhim vazifasidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi hamdir. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchi vazifasining o'zgarishiga sabab bo'ldi, pedagog ta'lim-tarbiya berishdan ko'proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylanib boradi. Keyingi yillarda maktablarni axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish jarayonida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda. Shulardab kelib chiqqan holda dars jaroayonini tashkil etishda yaxshi samara beradidan usul va vositalarni to'g'ri tanlash juda muhim hisoblanadi. O'qituvchilar darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Manashu vazifalarni amalga oshirishimizda interfaol metodlar tarkibiga kiruvchi innovatsion faoliyat ustunligi yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Xususan, boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Bu jarayonni amalga oshirishda boshlang'ich sinfo'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi.

“Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi xilma-xillik, mustaqillik, onglilik, faollik, erkin va ijodiy fikrlash, o'zini namoyon etish, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish va yangilik yaratishga intilish bo'lajak bakalavr o'qituvchilarning turmush tarziga aylanib bormoqda”. Bu muammolarni hal qilishni eng samarali usuli interfaol metodlarga asoslangan ta'lim tizimi ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, pedagogik tushunchalarni o'qituvchilar o'zlarida shakllantirayotganda har bir dars



maqsadi va mazmuniga mos keladigan motivatsiya me`yorini aniqlab olishi lozim bo`ladi. Pedagogikada o`qituvchilarni darsga qiziqtirish metodlari xilma-xildir. Pedagogikaning bugungi talabiga ko`ra darsga tayyorlanish va uni yuqori saviyada o`tkazish hamda to`g`ri baholash uchun ta`limning faol metodlaridan foydalanishi muhim ahamiyat ega. Xususan, "interfaol usulning bosh maqsadi o`quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. Zamonaviy ta`lim texnologiyalarining juda ko`p usullari mavjud. Bu usullardan o`quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. Boshlang`ich sinflarda "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash", "test", "rolli o`yinlar", "klaster", "sahna" darslari, "o`yin", "aql charxi", "sarlavhasi mendan matni sendan" o`yini, "taqdimot va muzyoralar", "gapni oxiriga yetkaz", "Ijodiy mehnat" mehnat usullaridan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko`zda tutib, muammoni keltirib, o`quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma`lum malakalarga ega bo`lgan holatlarda qo`llanilsa kutilgan natijalarni olish mumkin.

Aqliy hujum - bu siz o`qitayotgan mavzular bo`yicha o`quvchilarning ijodkorligini va hayajonini oshirish uchun o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan mashg`ulot. Bu har bir ishtirokchi onlayn doskada o`z g`oyalari va bilimlari bilan hissa qo`shishi mumkin bo`lgan mukammal guruh mashqlari hisoblanadi. Aqliy hujum eng oson bajariladigan interaktiv tadbirlardan biridir, chunki uning son-sanoqsiz shakllari mavjud - talabalarni ma`lum bir savol yoki mavzu bo`yicha fikr almashishga undaydigan qisqa sessiyalardan tortib, dars mavzusi bo`yicha chuqur muhokamalarga kirishish mumkin bo`lgan uzunroq sessiyalargacha aqliy hujum deb nomlanuvchi umumiy guruhlanishni tashkil etadi.

Bu metodlar orqali o`quvchilarning darslardagi faolligini oshirish mumkin. O`quvchilarning darslardagi mavzularni o`zlashtirishga bo`lgan qiziqish, xohish va istaklarini shakllantirish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo`lib, bu o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang`ich sinfda ta`lim jarayonida o`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Chunki darsga qiziqqan o`quvchi darslarda faol ishtirok etishga, o`rganilayotgan bilimlarni chuqurroq o`rganishga harakat qiladi. Interfaol metodlardan dars jarayonida foydalanishning o`ziga xos jihati shundaki, ular o`qituvchi va oquvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O`qitish jarayoni o`qituvchi hamda o`quvchilarning o`zaro hamkorligi natijasida amalga oshiriladi. O`qituvchining darslardagi faoliyati o`quv materialini bayon qilish, o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e`tiqodini shakllantirish, o`quvchilarning mustaqil mashg`ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko`nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O`z kasbini chinakam yaxshi ko`radigan o`qituvchilar darslarga muhabbat bilan yondashishadi. Boshlang`ich sinfga kelgan o`quvchilar ko`proq rangli



rasmlarga turli xildagi videolavhalarga qiziqadi. O'qituvchilarni bularni inobatga olgan holda darslarda ularga qiziq bo'lgan metodlarni qo'llashsa kutilgan natijalarga erishishadi. Bugungi kunda o'qituvchilarimiz yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, ta'lim tizimidagi faoliyatlarini olib borishmoqda. Maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan har bir darslarda istalgan interfaol metodlarni qo'llash mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bu metodlar asosida o'quvchilarning ongi o'sadi, dunyoqarashi shakllanadi, nutqi rivojlanib o'z fikrlarini erkim bayon etishni o'rganishadi. Hozirgi yoshlarimiz yangiliklarga intiluvchan, qiziquvchandir. Dars jarayonida ularni zeriktirib qo'ymaslik ularni darslarda faol ishtirokini ta'minlash juda muhim vazifa hisoblanadi. Dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilar dars jarayonida guruh bo'lib ishlashni, o'z g'ayalar fikrini tinglash, ular bilan fikr almashishni o'rganishadi. Bu metodlar orqali o'quvchilar eng avvalo o'zlarining g'oyalari, yaratilayotgan yangiliklar haqidagi o'z mustaqil fikrlarini erkin bayon qila olishlarini ta'minlashga yordam beradi. Ular bu qobiliyatlarini boshlang'ich sinfdan shakllantirishadi. O'qituvchilardan bugungi kunda o'quvchilarga dars berish bilan bir qatorda o'quvchilarni hayotga tayyorlash vazifasi ham talab etilmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. Mo'minov I.X. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari" T. "Innovatsiya ZIYO" 2023-yil. 29-b.
3. Hayitov.A.I. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi". "Zuhra Baraka Biznes" nashriyoti. T. 2021 61-b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish haqida fikr yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается важность использования интерактивных методов в процессе обучения учащихся начальной школы, повышения эффективности уроков за счет интерактивных методов, формирования мировоззрения учащихся, обучения их самостоятельному мышлению.

#### SUMMARY

This article discusses the importance of using interactive methods in the process of teaching elementary school students, increasing the effectiveness of lessons through interactive methods, forming the worldview of students, and teaching them to think independently.